

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF LAW RESEARCH  
SPECIAL ISSUE-1



# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-SI-1>

Бош муҳаррир:  
Главный редактор:  
Chief Editor:

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:  
Заместитель главного редактора:  
Deputy Chief Editor:

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'affor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Artur Gambaryan**  
yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)  
**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)  
**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Egamberdiyev Eminjon**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Skripnikov Nikolay Kuzmich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salayev Nodirbek Saparbayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Taxirov Farxod**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirazov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govverjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

<b>1. Жолдасов Айдос Фархадович</b> ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИНИШНИНГ ИЖТИМОЙ ЗАРУРИЯТИ.....	5
<b>2. Саидбоева Махбуба Рахмонназаровна</b> ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ УЧАСТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ПАРТИИ В ИЗБИРАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ В УЗБЕКИСТАНЕ И ТАДЖИКИСТАНЕ.....	17
<b>3. Искендеров Полат Конисбаевич</b> АВТОНОМ (ҲАЙДОВЧИСИЗ) ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ТОМОНИДАН ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ ҚОПЛАШНИНГ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.....	26
<b>4. Мейлиева Наргис Зульфикоровна</b> ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ: ЎЗБЕКИСТОН ВА ПОРТУГАЛИЯ НОТАРИАТИ.....	35
<b>5. Сайдивалиева Хуршида Ходжиақбаровна</b> ОТА-ОНАЛИК ҲУҚУҚЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МУНОСАБАТЛАРИНИ КЕЛИШУВ ОРҚАЛИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	42
<b>6. Vozorov Jasurbek Saydulla o'g'li</b> SHAXSLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINING PROKUROR TOMONIDAN HIMOYA QILINISHI.....	50
<b>7. Акбаралиева Мухайё Караматулло кизи</b> ПОХИЩЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА И ЗАХВАТ ЗАЛОЖНИКА: РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ СОСТАВАМИ.....	57
<b>8. Алиев Асилбек Кадиорович</b> ВОПРОСЫ КВАЛИФИКАЦИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА.....	64
<b>9. Allanova Azizaxon Avazxonovna</b> DAVLAT CHEGARASINI KESIB O'TISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI AMALGA OSHIRISHDA HUDUD MASALASI.....	71
<b>10. Алтиев Раззоқ Саидович</b> ЖИНОЯТЛАРНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ, ТУРЛАРИ ВА БОСҚИЧЛАРИ.....	80
<b>11. Бобокулов Хамид Махмадутович</b> ЕВРОПА ИТТИФОҚИДА ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИККА ҚАРШИ КУРАШ МАСАЛАЛАРИ.....	89
<b>12. Otaboyev Bobur Ibrat o'g'li</b> TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISH JINOYATINING OBYEKTI.....	96




**12.00.07-СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА**

**Bozorov Jasurbek Saydulla o'g'li,**  
 O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi  
 huzuridagi Sudyalar oliy maktabi doktoranti  
 E-mail: jasurbekkbozorovqash@gmail.com

**SHAXSLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINING PROKUROR TOMONIDAN HIMOYA QILINISHI**

**For citation:** Bozorov Jasurbek Saydulla ugli. PROTECTION OF HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS BY THE PROSECUTOR. Journal of Law Research. 2025, Special issue 1, pp. 50-56

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14679691>

**ANOTATSIYA**

Mazkur ilmiy maqola shaxslarning huquq va erkinliklarining prokuror tomonidan himoya qilinishi masalasini yoritadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan prokuraturaning vazifalari va funksiyalari, shuningdek, prokurorning huquqiy himoya qilishdagi o'rni va roliga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada Germaniya, Fransiya, AQSh va Rossiya kabi xorijiy mamlakatlarning prokuratura tizimlari va ularning inson huquqlarini himoya qilishdagi xalqaro tajribalari tahlil etilgan. Xalqaro huquq tamoyillari, shuningdek, prokuratura faoliyatining xalqaro standartlar bilan uyg'unlashuvi hamda bu tizimning samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladigan usullar ko'rib chiqiladi. Maqola O'zbekiston Respublikasining prokuratura tizimini takomillashtirishga oid takliflar va tavsiyalar bilan yakunlanadi.

**Kalit so'zlar:** Prokuratura, shaxs huquqlari va erkinliklari, xalqaro huquq, rokurorning roli, shaxs huquqlarini himoya qilish.

**Бозоров Жасурбек Сайделла угли,**  
 Докторант Высшая школа судей  
 при Высший совет судей Республики Узбекистан  
 Электронная почта: jasurbekkbozorovqash@gmail.com

**ЗАЩИТА ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА ПРОКУРОРОМ**

**АННОТАЦИЯ**

Данная научная статья освещает вопросы защиты прав и свобод личности прокурором. В статье рассматриваются задачи и функции прокуратуры Республики Узбекистан, а также особое внимание уделено роли прокурора в защите прав личности. В статье также проводится анализ практики прокуратуры в таких странах, как Германия, Франция, США и Россия, в

контексте защиты прав человека. Рассматриваются международные правовые принципы, а также согласование деятельности прокуратуры с международными стандартами и методы повышения эффективности этой системы. Статья завершается предложениями и рекомендациями по совершенствованию прокуратуры Узбекистана.

**Ключевые слова:** Прокуратура, права и свободы личности, международное право, роль прокурора, защита прав личности.

**Bozorov Jasurbek Saydulla ugli,**  
 Doctoral student of the Higher School  
 of Judges under the Supreme Council  
 of Judges of the Republic of Uzbekistan  
 E-mail: jasurbekkbozorovqash@gmail.com

## PROTECTION OF HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS BY THE PROSECUTOR

### ANNOTATION

This scientific article addresses the issue of the protection of individual rights and freedoms by the prosecutor. The article explores the duties and functions of the prosecutor's office in the Republic of Uzbekistan, with particular focus on the prosecutor's role in safeguarding human rights. It also analyzes the practices of the prosecutor's office in foreign countries such as Germany, France, the USA, and Russia in the context of human rights protection. International legal principles and the alignment of prosecutorial activities with international standards are also discussed, along with methods to enhance the effectiveness of the system. The article concludes with proposals and recommendations for improving Uzbekistan's prosecutorial system.

**Keywords:** Prosecutor's office, individual rights and freedoms, international law, the role of the prosecutor, protection of individual rights.

Bugungi kunda shaxlarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish eng dolzard muammolardan biri hisoblanadi. Chunki o'z oldiga rivojlangan fuqarolik jamiyatini qurishni re'ja qilgan mustaqil davlat bor ekan, ularning barchasi, birinchi navbatda, shaxs huquqlari va ularning erkinliklarini himoyalagan va kuchlik o'zgaras qonunchiligiga ega bo'lgan davlat bo'lishi lozim, sababi bugungi kundan davlatlarning xalqaro miqiyosdagi o'rni va mavqeyi ayni mana shu mezonlar asosida o'lchanadi va bu, bir tomondan, asosli ham hisoblanadi. Bugungi kunda yangi huquqiy islohotlar natijasida huquq tartibod va huquqni muhofaza qilish sohasida sezilarli o'zgarishlar hamda islohotlar olib borildi va buning natijasida davlatimizda Prokuratura organlarining shaxs huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi yaxlit ustunligi bir muncha bo'lsa ham, mustahkamlandi va ularning bu boradagi yo'nalishlari aniq va asosli belgilab berildi desak, adashmagan bo'lamiz. Shaxslarning huquq va erkinliklari har bir demokratik jamiyatning poydevorini tashkil qiladi. Buni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasi ham tasdiqlaydi: "O'zbekiston Respublikasida demokratiyaning eng oliy qadriyatlari inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari hisoblanadi." Shu nuqtai nazardan, prokuror tomonidan huquq va erkinliklarni himoya qilish muhim masala hisoblanadi. Prokuratura organlari davlatning huquqni muhofaza qilish tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, ular fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilishga mas'uldir. "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, prokuror qonuniylikni ta'minlash, shaxs va jamiyat manfaatlarini himoya qilish uchun javobgardir. Ushbu maqola prokuratura organlarining huquq va erkinliklarni himoya qilishdagi roli va amaliyotdagi dolzarb muammolarni aniqlash hamda ularni hal etish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

### Shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning nazariy asoslari

Shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bosh qomusimizda o'z aksini topgan bo'lib, bu esa, inson huquqlari va erkinliklarining qanchalik ustun ahamiyatga ega ekanligini, mamlakatda shaxslarning huquq-erkinliklari konstitutsiyaviy darajaga egaligini, milliy

qonunchiligimizda har qanday normativ-huquqiy hujjat, birinchi navbatda, konstitutsiya bilan hisoblashishi va konstitutsiyaga zid bo'lmashligi shartligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. 143-moddasiga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

Shaxs huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning xalqaro huquqiy asoslari "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 8-moddasida aniq ko'rsatilgan: "Har bir inson o'zining asosiy huquqlari buzilgan taqdirda, sud yoki boshqa tegishli davlat idoralari orqali samarali himoya qilish huquqiga ega." Shu bilan birga, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt"ning 2-moddasi davlatlarni inson huquqlarini ta'minlashda samarali mexanizmlar yaratishga majbur qiladi.

Prokuror faoliyatining asosiy qismini amaliy jihatlarida ko'rishimiz mumkin. Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish bulardan eng muhim va ahamiyatlisi hisoblanadi. Prokuratura organlari fuqarolar tomonidan taqdim etilgan murojaat va shikoyatlarni ko'rib chiqishda ularning huquqlarini tiklash bo'yicha choralar ko'radi. Bu jarayon "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunning talablari asosida amalga oshiriladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlariga 500 mingdan ortiq murojaat kelib tushgan, shundan 70 mingdan ortig'i fuqarolarning huquqlari buzilganlik holatlari bo'yicha hal etilgan.

Prokuratura organlarining sud jarayonlarida ishtirok etishi uning eng muhim vazifalaridan biridir. Prokuratura organlari sud jarayonlarida shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish va o'z navbatida fuqarolar tomonidan qonun talablarini buzish holatlari kuzatilgan bo'lsa, davlat ayblovchisi vazifasini amalga oshirish vakolatga ega. Biroq bu ularning shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni cheklaydi degan tushunchani bermaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 409-moddasiga muvofiq, prokuror sudda davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, jabrlanuvchi shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga majburdir.

Shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish huquqiy davlatning asosiy printsiplaridan biri hisoblanadi va bu borada prokuratura organlari yetkachi tashkilotlardan biri bo'lganligini inobatga olsak, ularning bu boradagi harakatlari birlamchi ahamiyatga ega bo'lishi va ular nafaqat mamlakatdagi qonunlar ijrosini nazorat qilishi, balki har qanday ijtimoiy xavfli qilmish yoki huquqbuzarliklarning oldini olishi lozim. Bu borada olimlarning fikr va qarashlarga to'xtaladigan bo'lsak.

Mashhur fransuz huquqshunosi Jan Bodin inson huquqlari haqida shunday fikr bildiradi: "Huquqning eng muhim vazifasi inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishdan iboratdir, chunki bu qadriyatlar davlatning barqarorligi uchun poydevor hisoblanadi"[1] (Bodin, 1576). Ushbu fikr bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, davlat organlari, jumladan, prokuratura bu qadriyatlarni himoya qilish uchun mas'uldir. Bunda ko'rinib turibdiki, bundan deyarli besh asr oldin keltirilgan yuqoridagi fikrlarda ham huquqning asosiy vazifasi inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish ekanligi keltirilgan. Bundan kelib chiqib bemalol shuni ayta olishimiz mumkinki, huquq tushunchasining asl nazariy mohiyati ham xudi mana shu inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash hamda himoyalashda o'z aksini topadi.

O'zbekistonlik olim S. Sirojiddinov ta'kidlaganidek: "Shaxs huquqlari va erkinliklarini ta'minlash prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lib, bu davlat va jamiyat o'rtasida ishonchni shakllantirishga xizmat qiladi"[2] (Sirojiddinov, 2021). Bu fikrdan kelib chiqib aytshimiz mumkinki, prokuratura organlarining ish taqsimotini hamda ish yuritish mexanizmlarini to'g'ri yo'lga qo'yish xalqning davlat hokimiyati va davlat idoralariga bo'lgan ishonchningyanada mustahkamlanishiga olib keladi.

Prokuror nazorati bundan bir necha yillar avval eng muhim rol vazifalardan biri hisoblansa-da, biroq bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shaxs huquqlarini himoya qilishda prokuror nazorati huquqiy kafolat hisoblanadi. Prokuratura organlari ushbu vazifalarni bajarishda davlatning boshqa organlari ustidan nazorat olib boradi. Bu borada mashhur olim A.Venediktov shunday yozadi: "Prokuratura nafaqat qonun buzilish holatlariga javob berishi, balki huquqbuzarliklarning oldini olishda ham faol bo'lishi kerak"[3] (Venediktov, 1972).

Bundan tashqari, shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq tamoyillari bilan mustahkamlangan. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 1-moddasida shunday deyilgan: "Barcha insonlar o'z sha'ni va huquqlari borasida teng va erkin tug'iladi." Ushbu tamoyillar davlat organlari, jumladan, prokuratura faoliyatining xalqaro standartlarga moslashuvini talab qiladi.

Germaniyalik olim Klaus Toppferning fikricha: "Prokuratura huquq va erkinliklarni himoya qilishda inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni o'z faoliyatiga qo'shib borishi shart, chunki bu qonun ustuvorligining asosi hisoblanadi"[4] (Toppfer, 1999). Milliy qonunchiligimizni xalqaro hamda xorij mamalakatlarining tajriba va amaliyotlari bilan to'ldirish, birinchidan, mamlakatimizning huquq tizimi xalqaro standartlar asosida yaxlit bir holga kelishini ta'minlasi, ikkinchidan, chet davlat yoki xalqaro miqyosda tan olingan bunday amaliyotlar mamlakatimizdagi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning keskin kamayishiga va o'z navbatida mamlakatimizning dunyo indekslaridagi huquqiy maqomi yuqorlashishiga olib keladi. Mamalakatning har tomondan yuksalishi, jumladan, huquqiy rivojlangan davlatlar ro'yxatiga kirishi, mamlakatdagi huquqbuzarliklar va jinoyatchiliklar sonining kamligi, mamlakatda inson huquqlarining to'liq ta'minlanishi yurtimizga kelgusida ham iqtisodiy, ham strategik sherkilarga ega bo'lishga, investorlar oqimining keskin ortishiga olib keladi.

Shu bilan birga, bu borada amerikalik olim Larri Siqqining fikri diqqatga sazovordir: "Prokuratura instituti inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi, chunki u davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyatini ta'minlash uchun vositachi hisoblanadi"[5] (Siegel, 2016). Davlat fuqarolar oldida o'z funksiyalarini amalga oshirar ekan, bunda o'zining har bir funksiyalarini amalga oshirishni qaysidir davlat organlariga topshiradi. Aynan mana shu davlatning huquq – tartibotni amalga oshirish funksiyasi prokuratura va adliya organlariga topshirilishi bizga jahon amaliyotlaridan ham ma'lum.

Prokuratura organlarining shaxs huquq-erkinliklarini himoya qilish borasidagi harakatlarining amaliy misoli sifatida quyidagi statistik ma'lumotlarni ham keltirishimiz mumkin. O'zbekiston prokuratura organlari tomonidan 2023-yilda olib borilgan tahlillar natijasida 5 mingdan ortiq fuqarolar huquqlari buzilishining oldi olingan. Bu holat prokuraturaning nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organ, balki profilaktik vosita sifatida ham ahamiyatini oshiradi va bu ma'lumotlar mashhur olim A.Venediktovning prokuratura nafaqat qonun buzilish holatlariga javob berishi, balki huquqbuzarliklarning oldini olishda ham faol bo'lishi kerak, - degan fikrlarining amaliyotdagi misoli desak adashmaymiz.

Yuqorida ko'rib chiqilgan nazariy qarashlar asosida quyidagi xulosaga kelishimiz mumkinki, shaxs huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda prokuror faoliyati milliy va xalqaro huquqiy tamoyillarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshiriladi. Olimlarning yuqoridagi fikr-mulohazalari shuni ko'rsatadiki, prokuratura nafaqat qonuniylikni ta'minlaydi, balki shaxsning asosiy huquqlari buzilmasligini kafolatlovchi institutsional mexanizm hisoblanadi.

Bilamizki, nazariy bilimlarni o'rganish va tahlil qilishda o'qitishning taqqoslash-qiyoslash metodikasidan foydalanish olinayotgan bilimning mustahkam bo'lishini va mavjud bilimlarni kengaytirish imkoniyatini yanada oshiradi. Shunday ekan, shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning xorijiy tajribasiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak.

### **1. Germaniya prokuratura tizimi**

Germaniya Federativ Respublikasi prokuratura tizimi "Rechtsstaatsprinzip" (qonuniylik printsiplari)ga asoslanadi. Bu printsiplari Germaniya Asosiy Qonunining 20-moddasida belgilangan bo'lib, prokuratura faoliyatida inson huquqlarini himoya qilish va qonun ustuvorligini ta'minlashni talab qiladi[6]. Yuqorida Germaniya Federativ Respublikasining qonunchiligiga ko'ra prokuratura

organlarining asosiy yo'nalish va vazifasi bu: huquqlarini himoya qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash ekanligini ko'ramiz. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish prokuratura organlariga bog'langan uzviy vazifalaridan biri ekan deyishimiz mumkin.

Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, prokurorlar jinoyat ishlari bo'yicha tergov va sud jarayonlarida shaxslarning huquqlarini himoya qilishga mas'uldir. Ushbu kodeksning §160-moddasida prokurorlarga "jinoyat sodir etilishining barcha holatlarini to'liq va xolisona o'rganish" vazifasi ham alohida belgilab qo'yilgan. Bu esa prokurorlarning nafaqat davlat ayblovini qo'llab-quvvatlashi, balki jabrlanuvchilarning huquqlarini ham himoya qilishini ta'minlaydi.

**Germaniyalik olim Klaus Lüderssenning fikricha:** "Germaniya prokuratura organlari jinoyat ishi jarayonida jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilishda va davlat organlarining noqonuniy harakatlariga qarshi chiqishda mustaqillikni ta'minlaydigan asosiy institutdir"[7] (Lüderssen, 2005).

## 2. Fransiya prokuratura tizimi

Fransiya prokurorlari "Ministere public" tizimida ishlaydi va ular Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksi (Code de procédure pénale) bilan tartibga solinadi. Ushbu kodeksning 31-moddasida prokurorlarning asosiy vazifasi "jamoat manfaatlarini himoya qilish va jabrlanuvchilarning huquqlarini tiklash"[8] deb belgilangan. Fransiya qonunchiligiga ko'ra prokuratura organlariga yuklatilgan asosiy ikki vazifa: jamoat manfaatlarini himoya qilish va jabrlanuvchilarning huquqlarini tiklash ekanligini va Fransiya prokuratura tizimi shaxs huquqlarini himoya qilish va tiklash sohasida yetakchi tashkilotliginiko'rishimiz mumkin.

Fransiyada prokurorlarning mustaqilligi va inson huquqlarini himoya qilish funksiyalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, prokuror sud jarayonlarida davlatning manfaatlarini himoya qilish bilan birga, jabrlanuvchilarga bepul huquqiy yordam ko'rsatadi.

**Fransuz olimi Raymond Saleilles ta'kidlaganidek:** "Fransiya prokuratura tizimi davlat va shaxslar o'rtasidagi huquqiy muvozanatni saqlashga qaratilgan bo'lib, bu tizim jabrlanuvchilarning huquqlarini ustuvor hisoblaydi"[9] (Saleilles, 1910).

## 3. AQSh prokuratura tizimi

AQShda prokurorlarning faoliyati federal va shtat qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. AQSh Konstitutsiyasining 14-tahriri ("due process" tamoyili) shaxsning huquqlari va erkinliklarini davlat organlari tomonidan noqonuniy cheklanishidan himoya qiladi[10]. Yuqorida bunun Amerika qo'shma shtatlarining umumiy Konstitutsiyasining 14-tahririda prokuratura organlarining asosiy vazifasi shaxsning huquqlari va erkinliklarini davlat organlari tomonidan noqonuniy cheklanishidan himoya qilish deb keltirilgan.

Federal darajada AQSh Adliya departamenti prokurorlariga sud jarayonlarida fuqaro huquqlarini himoya qilish vakolati berilgan. 1964-yilda qabul qilingan Fuqarolik huquqlari to'g'risida qonun (Civil Rights Act) ga muvofiq, prokurorlar irqiy, etnik yoki jinsiy diskriminatsiya qurboni bo'lgan shaxslarni himoya qilishga mas'uldir[11].

**Amerikalik yuridik mutaxassis Larri Siegel shunday yozadi:** "AQSh prokuraturasi nafaqat jinoyat ishlari bo'yicha, balki fuqarolik ishlari bo'yicha ham jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish orqali qonuniylikni ta'minlaydi. Bu tizim inson huquqlarini xalqaro standartlarga mos ravishda himoya qilishga xizmat qiladi"[12] (Siegel, 2016).

## 4. Rossiya prokuratura tizimi

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 45-moddasiga ko'ra, davlat inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni kafolatlaydi[13]. Ushbu vazifa Rossiya prokuratura organlariga yuklangan. Rossiya Federatsiyasi Prokuraturasi to'g'risidagi qonunning 1-moddasida prokuratura "fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini tiklash uchun davlat vakolatlarini amalga oshiruvchi organ" sifatida belgilangan[14].

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 37-moddasi prokurorlarni jinoyat ishlari bo'yicha davlat ayblovini qo'llab-quvvatlashdan tashqari, jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga majbur qiladi[15].

**Rossiyalik olim A.Ya.Sukharev shunday fikr bildiradi:**“Rossiya prokuraturasi huquqni muhofaza qilish tizimining markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, u nafaqat qonuniylikni ta‘minlash, balki shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarini tiklashni ham o‘z zimmasiga oladi”[16] (Sukharev, 2004).

Yuqoridagilarni kelib chiqib shuni aytishimiz mumkin, xorij mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, prokuratura organlari nafaqat jinoyatga qarshi kurashadi, balki shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishda muhim institut sifatida maydonga chiqadi. Germaniya, Fransiya va AQShda prokurorlarning mustaqilligi ta‘minlanishi, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarning qo‘llanishi hamda jabrlanuvchilarning huquqlarini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar huquqiy tizimning samaradorligini oshiradi.

Yuqorida milliy va xalqaro tajribalarni ko‘rib chiqish davomida bir qator tafovutlarni ko‘rishimiz mumkin va o‘z o‘rnida shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, birinchi navbatda, xalqaro huquq va inson huquqlari bo‘yicha, xususan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Komiteti tomonidan belgilangan tamoyillarni o‘rgatish maqsadida prokuratura organlari uchun muntazam ravishda maxsus o‘quv dasturlarini joriy qilish zarur. Bu dasturlar prokurorlarga xalqaro huquq, inson huquqlari, shuningdek, jinoyat va fuqarolik protsesslari bo‘yicha eng so‘nggi metodologiyalarni o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi. Ikkinchidan, prokuratura organlarining faoliyatini jamoatchilik uchun yanada shaffof qilish maqsadida, prokuratura ishlarini monitoring qilish bo‘yicha jamoat tashkilotlari va mustaqil ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Shuningdek, har bir prokuratura organining ish faoliyati bo‘yicha hisobotlar muntazam ravishda e‘lon qilinib, fuqarolar tomonidan o‘rganilishi uchun ochiq bo‘lishi kerak. Bu jamoat nazoratini amalga oshirishga va prokuratura faoliyatining obro‘sini oshirishga yordam beradi. Uchinchidan, jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilishda prokuratura organlari tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik yordamni kuchaytirish uchun, prokuratura tarkibida maxsus Jabrlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi tashkil etilishi lozim. Ushbu bo‘lim jinoyat ishlari bo‘yicha jabrlanuvchilarga bepul huquqiy maslahatlar va yordam ko‘rsatib, ularning huquqlarini himoya qilishda prokurorlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. To‘rtinchidan, prokuratura organlarida faoliyat yuritayotgan barcha xodilarga huquqiy va ma‘naviy madaniyatni oshirishga qaratilgan doimiy ma‘ruza va seminarlar tashkil qilish zarur. Ushbu ma‘ruzalar yordamida prokurorlar shaxslarning huquqlarini himoya qilishda professional va axloqiy mas‘uliyatni his etishadi. Ma‘naviy yuksalish va huquqiy bilimlarni oshirish, prokurorlarning inson huquqlarini samarali himoya qilishda muhim omil bo‘ladi. Beshinchidan, prokuratura organlarida ichki nazoratni kuchaytirish maqsadida, prokuratura organlarining faoliyatini doimiy ravishda tekshirib boradigan va mustaqil bo‘lgan ichki nazorat bo‘limlarini tashkil etish zarur. Ushbu bo‘limlar prokurorlarning huquqiy, ma‘naviy va axloqiy xatolarini aniqlab, ularga qarshi kurashishga yordam beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, prokuratura tizimida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish uchun yuqoridagi takliflar asosida tizimli va kompleks yondoshuvni joriy etish zarur. Prokuratura organlarining mustaqilligini ta‘minlash, xalqaro huquq tamoyillariga moslashish, shaffoflikni oshirish, jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish va huquqiy madaniyatni oshirish orqali mamlakatimizda prokuratura tizimining yanada samarali rivojlanishiga keng yo‘l ochiladi va inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotga aylanadi.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. <http://www.ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/download/687/637>
2. <https://uzbekistan.un.org/uz/125180-helena-freyzerning-ozbekiston%20respublikasining-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-boyicha-2021>
3. <https://journals.uznauka.uz/index.php/lps/article/download/388/280/611>
4. <https://parliament.gov.uz/articles/1617>
5. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=3508058>
6. [https://www.bmj.de/DE/rechtsstaat\\_kompakt/grundgesetz/rechtsstaatsprinzip/rechtsstaatsprinzip\\_node.html](https://www.bmj.de/DE/rechtsstaat_kompakt/grundgesetz/rechtsstaatsprinzip/rechtsstaatsprinzip_node.html)
7. [https://books.google.com/books/about/Il\\_declino\\_del\\_diritto\\_penale.html?id=-jAOAQAACAAJ](https://books.google.com/books/about/Il_declino_del_diritto_penale.html?id=-jAOAQAACAAJ)
8. [https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte\\_lc/LEGITEXT000006071154/](https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006071154/)

9. [https://link.springer.com/10.1007/978-94-007-6730-0\\_791-1](https://link.springer.com/10.1007/978-94-007-6730-0_791-1)
10. <https://www.whitehouse.gov/about-the-white-house/our-government/the-constitution/>
11. <https://www.archives.gov/milestone-documents/civil-rights-act>
12. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=3508058>
13. <http://duma.gov.ru/legislative/documents/constitution/>
14. [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_262/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_262/)
15. [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_34481/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/)
16. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/download/1560/1462/1553>

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF LAW RESEARCH  
SPECIAL ISSUE-1

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000